

**Olmalıq kon metallurğiya kombinati aksiyadorlik jamiyatiga
2023-yilning 11 oyi davomida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan
murojaatlar hisoboti**

“Olmalıq KMK” AJga 2023-yil 11 oyi davomida jismoniy va yuridik shaxslardan jami **4047** ta murojaatlar kelib tushgan. Shundan, **1821** tasi og‘zaki va **1275** tasi yozma ko‘rinishda, **260** tasi veb-sayt orqali qabul qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali **691** ta murojaatlar kelib tushgan.

Tahlillarga ko‘ra, murojaatlarning **2405** tasida (59,4 %) ishga joylashish va tiklash, **577** tasida (14,26 %) ish joyini o‘zgartirish va boshqa mehnat munosabatlari, **309** tasida (7,64 %) moddiy yordam ajratish, **111** tasida (2,74 %) yer bilan bog‘liq masalalar, **209** (5,16 %) tasida uy-joy va kommunal xizmatlar, **436** tasida (10,77 %) boshqa mazmundagi masalalar ko‘tarilgan.

Kelib tushgan murojaatlarning **3910** tasi (96,6 %) bo‘yicha tegishli tartibda huquqiy tushuntirishlar berilgan hamda ijobiy hal qilingan. **34** ta (0,8 %) murojaatlar “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 29-moddasi asosida ko‘rib chiqilmasdan qoldirilgan, **10** ta (0,3 %) murojaatlar tegishliligi bo‘yicha boshqa tashkilotlarga yuborilgan. **93** ta (2,3 %) murojaatlar hisobot kunida o‘rganish jarayonida bo‘lgan.

Shuningdek, “Olmalıq KMK” AJ boshqaruv raisi va boshqaruv raisi o‘rinbosarlarining shaxsiy masalalar bo‘yicha qabul kunlari belgilangan. Boshqaruv raisining shaxsiy qabulida **206** nafar, boshqaruv raisi o‘rinbosarlarining shaxsiy qabullarida **1606** nafar fuqarolar qabul qilingan. Bevosita idorada qabul qilinganlar **990** nafarni, sayyor qabullarda qabul qilingan fuqarolar soni **822** nafarni tashkil etadi.

“Olmalıq KMK” AJning Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘limiga hisobot davri davomida korrupsiya faktlariga doir murojaatlar kelib tushmagan.